G`O`ZANI YERYONG`OQ BILAN QATOR ORALATIB HAMKOR EKISHNING SAMARADORLIGI.

Boymanova Olima Obid qizi
Qarshi Davlat Texnika Universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida g‘o‘zani yeryong‘oq bilan qator oralatib hamkor ekish bo‘yicha o‘tkazilgan dala tajribalari natijalari bayon qilingan. Tajriba natijalari ushbu ekinlarni qator oralatib hamkor ekilganda ekinlarning quyosh nuridan foydalanishi, xavo almashinishi va oziqlanish sharoitlarining yaxshilanishi sababli gektar birligidan olinadigan hosildorlikning sezilarli darajada ortishini ko‘rsatgan.

Аннотация. В стате приведены материалы исследований проведённых в условиях орошаемого светлого серозема по совместному посеву хлопчатника с арахисом. Повышается урожайност, экономическая эффективност. Этот метод очень эффективен расширения между посевных борозд исползованием света, а также улучшается обмен воздуха. В результате, рост и развитие селскохозяйственных культур будет ускорятся, раннее созревание, что положително сказывается на количества и качества урожая.

Annotation. The article presents the research materials on the basis of experience in the conditions of irrigated typical serozem subjected to irrigation erosion, when cotton is sown together with sugar beet and peanuts, yields and economic efficiency increase. This method is very effective in expanding sowing furrows between the use of light, and air exchange is improved. As a result, the growth and development of crops will accelerate, early maturation, which positively affects the quality of the crop.

Kalit so‘zlar: g‘o‘za, yoryong‘oq, qator oralatib hamkor ekish, hamkor ekin, agrotexnologiya, asosiy poya balandligi, hosildorlik, pichan hosili.

Ключевые слова: хлопчатник, арахис, совмещенная культура, сомещенный бороздковый посев, агротехнология, высота основного стебля, урожайност, урожайност сена.

Keywords: cotton, peanuts, intercropping, intercropping furrow sowing, agricultural technology, main stem height, yield, hay yield.

Kirish. Tuproq unumdorligini saqlash, tiklash va oshirish qishloq xo‘jaligidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan. O‘zbekiston aholisining soni ohirgi 25 yil ichida uchdan bir qismga ko‘paydi, ya’ni 11,5 mln.ga ko‘payib, 33,5 mln.ni tashkil etmoqda va bundan keyin ham ko‘payib borishi kutilmoqda. Endigi vazifa ko‘payib borayotgan xalqni boqish uchun yangi yerlarni ochish bilan birga, hozirda dexqonchilik qilinayotgan yerlardan yanada ko‘proq hosil olishdan iborat, meliorativ jihatidan yaxshi yerlar o‘zlashtirilib bo‘lingan, ko‘p suv manbalari, zahiralar mavjud, lekin ular chegaralangan. Hozirda sug‘oriladigan yerlardan mo‘l hosil yetishtirishda muhim choralardan biri bir gektar yerning o‘zida g‘o‘za bilan hamkor ekinlarni parvarishlash agrotexnologiyalarini yaratishdan iborat.

Hamkor ekish bir qaraganda almashlab ekishga o‘xshaydi, aslida esa unga nisbatan qator afzalliklarga ega. Bunda bir yilning o‘zida bir necha ekinlardan yuqori va sifatli hosil olishga erishiladi. Hamkor ekilganda ekinlar tuproq-iqlim sharoitidan to‘laroq foydalanib, noqo‘lay sharoitlar ta’siri kamayadi va natijada iqtisodiy samaradorlik keskin ko‘payadi.

Valovik [1] ma’lumotiga ko‘ra Xitoyda g‘o‘za bilan hamkor ekinlarni birgalikda ekishning bir necha usullari mavjud. Masalan, bug‘doy, sholi yoki raps kabi ekinlar g‘o‘za bilan hamkorlikda ekiladi. Ayniqsa bu usullar Xitoyning janubiy viloyatlarida keng qo‘llanilib, yuqori hosil olinmoqda. Ayrim viloyatlarda 30 s/ga bug‘doy va 10,5 s/ga paxta tolasi (30-31 s/ga paxta xom ashyosi), g‘o‘za raps bilan birgalikda ekilganda 11,2- 15,0 s/ga raps urug‘i, shuningdek 7,5 s/ga paxta tolasi (22-23 s/ga paxta xom ashyosi) olinmoqda.

G‘o‘zani boshqa ekinlar bilan hamkor ekish bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni adabiyotlardan topish ancha mushkul. G‘o‘zani dukkakli va boshqa ekinlar bilan birgalikda ekish ayrim paxta yetishtiriladigan davlatlarda tarixiy an’ana bo‘lsada, bunga oid ilmiy tajriba va ma’lumotlar yetarli emas.

Xindistonda bir necha yillardan buyon g‘o‘zani yeryong‘oq va bulg‘or qalampiri bilan birgalikda ekish usullari qo‘llaniladi. Bunda bir qator g‘o‘zadan keyin 14 qator yeryong‘oq yoki bulg‘or qalampiri ekiladi. Ekinlar hamkorlikda ekilganda daromad har doim bir xil ekin ekilgandagiga nisbatan yuqori bo‘ladi. (Ter-Avanesyan, [11]).

Q.M.Mirzajonov va M.Yusufjonovlarning [10] Farg‘ona viloyatining Quva tumanida olib borgan tajribasida kuzda javdar sof holda va javdar raps urug‘lari aralashmasi paxta qator oralariga siderat ekin sifatida ekildi. Tajriba natijalari g‘o‘za qator oralariga siderat ekinlari sof va aralash holda ekilganda tuproqning hajm massasi 1,23-1,37 g/sm^3 dan 1,13-1,25 g/sm^3 gacha kamayganligi, shuningdek tuproqning strukturasi va suv o‘tkazuvchanligi yaxshilanganligi aniqlangan.

Shunga o‘hshash ilmiy ma’lumotlar Ruziev I.E. [4] , Ruziev I.E. Uraimov T. [5] va Ruziev I.E. Uraimov T. Mo‘ydinov H.G‘. [6]lar tomonidan ham keltirilgan.

Tadqiqot obekti va uslublari. 2014-2016 yillar mobaynida g‘o‘zani yer yong‘oq o‘simligi bilan hamkor ekish usuli Andijon viloyati, Andijon tumanidagi “Bakirov yog‘dusi fermer xo‘jaligida ekib o‘rganildi.

Dala – ishlab chiqarish tajribasi 3 ta variantdan iborat bo‘lib, 1-variantda g‘o‘za yakka holatda 60x20-1 tizimda, 2-varintda yeryong‘oq yakka holatda 60x20-1 tizimda va 3- variantda g‘o‘za 120x20-1 tizimda ekilib, uning qator orasiga 120x20-1 tizimda yeryong‘oq hamkor ekin sifatida ekildi.

Dala tajribalarini olib borishda “Metodы provedeniya opытov s xlopchatnikom” (1983), agrokimyoviy xossalarini tahlil qilishda “Metodы agroximicheskix analizov pochv i rasteniy” (1977), tuproqning agrofizikaviy hossalarini tahlil qilishda “Metodы

agrofizicheskix issledovaniy” (1973) lardan foydalanib, shular asosida tadqiqot ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari. Olib borilgan tajriba natijalari g‘o‘za alohida ekilganda o‘simlikning bir biriga soya solishi ko‘proq namoyon bo‘lishi sababli g‘o‘zaning hamkor ekilgandagiga nisbatan asosiy poya balandligi yuqoriroq bo‘lishi, g‘o‘za va yeryong‘oq qator oralatib hamkor ekilganda esa ekinlarning quyosh nuri va boshqa omillardan samaraliroq foydalanishi kuzatildi. Bu ekinlarning o‘sib rivojlanishi va hosil to‘plashida o‘z aksini topdi. Tajribada olingan hosildorlik ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajribaning 1-yilida g‘o‘za odatdagidek alohida ekib parvarishlangan 1-variantda paxta hosildorligi 35,2 s/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, g‘o‘za yeryong‘oq bilan hamkor ekilgan 3- variantda ekinlar hamkor ekilgan 1 gektar maydondan olingan hosil 22,4 sentnerga teng bo‘ldi. Hamkor ekilganda g‘o‘za egallagan maydon 0,5 gektarni tashkil etganligini e’tiborga olsak, hosildorlik bir gektarda 44,8 s/ga ni tashkil etdi.

Yeryorg‘oqning o‘zini ekib parvarishlangan 2-variantda 24,3 s/ga yer yong‘oq don hosili olingan bo‘lsa, ekinlar qator oralatib hamkor ekilgan 3-variantda yeryong‘oqdan 16,3sentner don hosili olindi va uning hosildorligi 32,6 s/ga ni tashkil etdi. Bundan tashqari yeryong‘oq ekilgan variantlarda yer yong‘oqdan 130,2-168,8 s/ga pichan hosili ham olindi.Tajribaning 2 va 3-yillarida ham ekinlardan olingan hosildorlik bo‘yicha ushbu qonuniyat saqlanib qoldi.

Hosildorlikni yillar bo‘yicha tahlil qilganimizda, tajriba variantlarida ham g‘o‘za, ham yeryong‘oq hosildorligining yildan yilga ortib borganligini ko‘rishimiz mumkin. Buni dukkakli ekin hisoblangan yer yong‘oqning tuproqni biologik azotga boyitishi va tuproq unumdorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan izohlash mumkin.

Xulosa. Ishlab chiqarish tajribasida olingan ma’lumotlar Andijon viloyatining sug‘oriladigan yerlarida g‘o‘zani yeryong‘oq bilan egat oralatib hamkor ekish mumkinligini va bu usul yuqori samara berishini ko‘rsatdi. Ekinlarni egat oralatib hamkor ekilganda tuproq tarkibidagi ozuqa elementlari, suv, havo, quyosh energiyasi

va boshqa tabiiy omillardan foydalanish samaradorligining sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Shuningdek gektar birligidan olinadigan yalpi hosil miqdori va sifatining 15-17 foizga oshishi hisobiga paxtachilikda yuqori rentabellikka erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.

1. Valovik O. Kitayskiy variant. J."Xlopok",1989, №2. str 17

2. Mirzajonov K. Lik sentralnoy Ferganы v prejnee i nastoyaщee vremya.-Izd-vo «GO FAN POLIGRAF» MChJ Tashkent, 2014, 249 s.

3. Mirzajonov K.M., Raxmonov R.U., Irrigatsionnaya eroziya pochv i elementы borbы s ney. -Izd-vo «Navruz», Tashkent, 2016, 252s.

4. Roziev I.E.,Factors for productive use of low-fertility, irrigated gray soils, NEUROQUANTOLOGY | NOVEMBER 2022 | VOLUME 20 | ISSUE 15 | PAGE 2073-2080| DOI: 10.14704/NQ.2022.20.15. NQ 88192.

5. Ruziev I.E., Uraimov T. Effect of Cooperative Cultivation of Crops on Gray Soils on Agricultural Characteristics, Design Engineering ISSN: 0011-9342 | Year 2021 Issue: 8 | Pages: 8998-9007.

6. Ruziev I.E., Uraimov T. Muydinov Kh.G., EFFICIENCY OF MINERAL FERTILIZER QUANTITIES IN GROWING AUTUMN WHEAT AND FARM CROPS, PalJournal of Archaelogy of Egipt| Egiptology, pjaee, 17 (6) (2020).

7. Mirzajonov K.M. Ham paxta, xam don va ozuqabop ekinlar. Fan yutuqlari qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga. Toshkent., 1992

8. Mirzajonov K.M.Pochvы trebuet zaщitы. J. “Xlopok”, 1988, №:2, 24s.

9. Mirzajonov K.M., Abidov R. Sposobы seva xlopchatnika v zonax silnoy vetrovoy deyatelnosti. J. "Xlopkovodstvo",1986, №3,23-24s.

10. Mirzajonov K.M., Yusupjonov K.M. Vliyanie sideralnыx kultur na povыshenie plodorodiya pochv, podverjennыx vetrovoy erozii. Trudы SoyuzNIXI, vыp. 46, Tashk. 1981, str.76

11. Ter-Avanesyan D.V. Xlopchatnik. "Kolos" Mosk.1979, str.400-402